



Published: January 30, 2026



Read More Articles



Check for updates

Maxfuzaxon JALOLDINOVA

Toshkent islom instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b. dotsenti,

Islomshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD)

E-mail: mahfuzajaloliddinova@gmail.com

ID 0000-0002-9291-9350

ISLOM HUQUQIDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMI VA MAQSADINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom huquqida ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi, uning maqsad va tamoyillari, tarixiy asoslari hamda amaliy ko'rinishlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Shariatning besh asosiy maqsadi – din, jon, aql, nasl va molni himoya qilishga qaratilgan qoidalar ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashda fundamental o'rin tutishi ilmiy asoslarda izohlanadi. Ushbu maqsadlar musulmon jamiyatlarida ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va inson sha'nini asrash kabi vazifalarning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada ijtimoiy himoyaning zaruriyat (daruriy), hojiyot va tahsiniyot kabi bosqichlari keng talqin qilinib, ularning jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchan mexanizm sifatida amal qilishi ko'rsatiladi. Maslaha, "haqqulloh" va "haqqul abd" kabi iboralarning ijtimoiy adolatga oid konseptual mazmuni tahlil etilib, ular shaxsiy va jamoaviy huquqlar muvozanatini ta'minlashda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Shuningdek, zakot, sadaqa, ushr va waqf kabi institutlarning boyliklarni adolatli taqsimlash, kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishdagi o'rni sharhlanadi. Xulosa o'rnida, maqola islom huquqining bosh maqsadi jamiyat farovonligini ta'minlash, inson manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilganligini asosli dalillar bilan bayon qiladi.

Kalit so'zlar: Islom huquqi, ijtimoiy himoya, maqosid ash-shari'a, maslahat, zaruriyat, hojiyot, tahsiniyot, zakot, waqf, haqqulloh, haqqul abd, fiqh, adolat.

THE ELUCIDATION OF THE SYSTEM AND OBJECTIVES OF SOCIAL PROTECTION IN ISLAMIC LAW

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the development of the social welfare system in Islamic law, its fundamental objectives, guiding principles, historical foundations, and practical mechanisms. It highlights how the five essential goals of the Sharia – protection of religion, life, intellect, lineage, and property – serve as the basis for ensuring social stability and justice within Muslim societies. These objectives function as core pillars for supporting vulnerable groups, safeguarding human dignity, and promoting social equality.

The article further explains the three levels of social needs – necessities (daruriyyat), needs (hajiyyat), and complementary concerns (tahsiniyyat) – demonstrating their role as adaptable frameworks that respond to various social demands. Key concepts such as maslaha (public interest), haqqullah (rights of God), and haqq al-'abd (rights of individuals) are examined in detail, emphasizing their importance in balancing collective and personal rights, as well as maintaining justice and accountability.

In addition, the article discusses the economic and ethical functions of zakat, sadaqah, ushr, and waqf, clarifying their significance in the fair distribution of wealth, poverty alleviation, and strengthening social solidarity. The author concludes that the primary aim of Islamic law is to ensure societal well-being, protect human interests, and uphold justice through a comprehensive and harmonious social welfare framework.

Keywords: Islamic law, social protection, maqasid al-sharia, maslaha, daruriyyat, hajiyyat, tahsiniyyat, zakat, waqf, public interest, justice, fiqh.

Islom bir necha ming yildan buyon o‘zining ilohiy ta’limotlari bilan ko‘plab sohalarda, ilm-fan taraqqiyotida, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari, muammolariga o‘ziga xos yechimlarni taqdim etgan. Davlatning eng kichik bo‘g‘ini shaxs, oiladan to butun jamiyatning ijtimoiy himoyasini ta’minlashga doir qonun-qoidalarini ko‘rsatib bergan. Insonning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar butun hayotining har bir bosqichini ijtimoiy himoyasini ta’minlash choralari ishlab chiqilgan. Bu hali tug‘ilmagan ona qornidagi homila, bolalar, ayollar, qariyalar, mehnatga layoqatsizlar, bemorlar, kambag‘allarning haq-huquqlarini quyidagi tizimlar orqali himoya qilishda o‘z aksini topadi:

- maqosidi shari’a (مقاصد الشريعة) (dini, joni, moli, aqli, nasli himoyasi);
- oila bilan bog‘liq masalalarda (الأحوال الشخصية) (nikoh, nafaqa, silai rahm);
- moliyaviy ibodatlar (العبادات المالية) (zakot, ushr, fitr, sadaqa, nazr, kafforat, qurbonlik, ehson);
- baytul mol (بيت المال) (davlat byudjeti);
- vaqf (وقف) (sadaqai joriya).

Mana shu tizimlarning qoidalarini, hukmlarini, insonning himoyasiga qaratilgan ta’limotlarini ijtimoiy himoya bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish va oldini olish yo‘llaridan biri sifatida o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Islom huquqida ijtimoiy himoyaga oid munosabatlar shariatning maqsadlari va shu asosdagi ko‘rsatmalari, hukmlari ustiga barpo qilingan. Shuning uchun shariatning hukmlarni joriy etishdan maqsadi va sabablarini o‘rgangan holda ijtimoiy himoya bo‘yicha tartibga solingan huquqiy qoidalar o‘rganiladi.

Islom huquqi asoslarini tadqiq qilish musulmon jamiyatlarida taraqqiyot va inson huquqlari tutashadigan nuqtani ochib beradi. Fiqhni to‘g‘ri tushunishning asosi sifatida shariat maqsadlari islom huquqidagi yangi qarashlar uchun asos bo‘ladi. Qaffol Shoshiy fikriga ko‘ra: “Vahiyning asosiy maqsadi yer yuzida fozil siyosatga muvofiq ijtimoiy adolatni ta’minlashdir. Ushbu adolat insonning ikki dunyodagi baxt-saodati uchun zarur bo‘lgan barcha turdagi yaxshilik va foydalarni o‘z ichiga olgan inson manfaati orqali ta’minlanadi. Alloma barcha shariatlar mavjud bo‘lishining umumiy sababi “maslaha” – inson foydasi ekanini qat’iy tarzda ta’kidlaydi. [1:108]

Islom jamiyatida yashaydigan shaxs, kim bo‘lishdan qat’i nazar, ba’zi bir sabablarga ko‘ra o‘z kasbidan o‘zini ta’minlay olmasa, bemorlik, qarilik yoki ojizlik tufayli nochor holatga tushib qolsa, shariat unga to‘liq ijtimoiy ta’minot haqqini bergan. [2:81]

Usulul fiqh¹ ulamolari: “Shariat hukmlarining umumiy maqsadi bu dunyoda odamlarning hayoti va saodati uchun kerak bo‘lgan barcha narsalarni yuzaga chiqarishdir”, deb ta’kidlaganlar. Bu esa ularga manfaatni jalb qilish va ulardan zararni daf qilish orqali yuzaga chiqadi. [3:21] Bundan ko‘rinib turibdiki, shariatning tom maqsadi, xossatan fiqhning butun ko‘lami ayni ijtimoiy himoyadir. Ya’ni musulmon jamiyatining barcha a’zolarini har tomonlama himoya qilishni ko‘zlaydi.

Islomshunos olim N.Hakimova shunday ta’riflaydi: “Shariat maqsadi tushunchasi kichik va umuminsoniy masalalarning barchasida ma’no, hikmat va maqsadlarni o‘z ichiga oladi”. [1:53]

Islom huquqida tavhid, adolat, birodarlik, ijtimoiy hamjihatlik, baham ko‘rish va hamkorlik jihatlari asosiy elementlardan bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini, odamlarning Allohga bandalik burchlarini bajarishini ta’minlaydigan va barqaror rivojlanish ijtimoiy tartibni yaratishni maqsad qiladi. [2:79] Payg‘ambar alayhissalom “Vidolashuv haji”da shunday deganlar: “Bilingki, har bir musulmon o‘zaro birodar va aka-ukadirlar”. [3:309–310]

Usulul fiqhning ulug‘ olimlaridan “Muvafaqot” nomli mashhur kitobning muallifi, “shariatning maqsadlari” (مقاصد الشريعة) istilohini birinchilardan bo‘lib qo‘llagan olim Imom Shotibiy bo‘lib, “Manfaat

¹ Islom huquqining nazariy qismi bo‘lib, hukmlarning olish asoslari, dalillari o‘rganiladi.

va zararlar ko‘pincha nisbiy bo‘ladi. Ya‘ni holat, vaqt yoki shaxsga manfaat bo‘lishi va boshqa tarafdin manfaatli bo‘lmashligini aytgan” [4:223].

Jamiyatning ijtimoiy himoyasi va tinchligining ta‘minoti holatlar muhofazasiga bog‘liq bo‘lib, u fiqhiy kitoblarda “zaruriyoti xoms – besh zarurat”, “maqsidi xoms – besh maqsad”, “kulliyoti xoms – besh kulliya”, “besh asl” [5:33–34] kabi nomlar bilan ataladi [4:29]. Bu haqida Imom G‘azzoliy shunday deydi: “Din va shariatning bandalarga ko‘zlagan maqsadi ularning dini, joni, aqli, nasli va molini muhofaza qilishdir”. Ularni saqlash tarkibiga kiradigan ishlarning barchasi manfaat, ularning zavoliga sabab bo‘ladigan barcha narsalar zarardir. Uni daf qilish esa manfaatdir. Insonni bu besh narsasiz tasavvur qilib bo‘lmagani uchun ularni zaruratlar yoki inson manfaatlari deyiladi [7:33–34].

Islom huquqida ijtimoiy himoya mana shu besh maqsadni ko‘zlagan holda har bir insonni butun hayoti davomida ta‘minlaydi. Shuningdek, yashash uchun kerak bo‘lgan barcha vositalar zaruratlar, ehtiyojlar va manfaatlar tartibida keltirilgan.

Maslahat (مصلحة) arabcha “manfaat, foyda, naf” ya‘ni har bir narsaning solih, ya‘ni to‘g‘ri bo‘lish ma‘nosini anglatadi. Bunda yaxshilik, foydalarni jamlash va zararlarni daf qilish anglashiladi [8:37].

Maslahatlarni kattalashtirish deganda, manfaatli narsalarni ulug‘rog‘ini jalb qilish tushuniladi. Shuningdek, boylardan daromad va boylikni olib, faqirlarga tarqatish ham ijtimoiy manfaatlarni ulug‘lashga xizmat qiladi. Chunki faqirning bir dirham topgan manfaati boyning ko‘p topganidan ustun turadi [9:205–206].

“Kashful kino” kitobida quyidagilar aytiladi: “Musulmonlardan zararni daf qilish farzi kifoya hisoblanib, muayyan shaxsdan emas, ko‘pchilikdan hosil bo‘lishi talab qilinadi. Agar bir kishi shu ishga qodir bo‘lsa ham farz bo‘ladi. Masalan, kiyimsizni kiyintirish, ochni to‘yg‘azish, asirlarni ozod qilish bunga qodir bo‘lgan musulmonlarga farzdir” [2:76]. Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, aynan zararni daf qilish fiqhiy qoidasi ham ijtimoiy himoyani o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy himoya bilan bog‘liq muammolarni hal qilish va oldini olish zararni daf qilish hisoblanadi.

Moliyaviy yetishmovchilik ko‘pincha ibodatdan halovatni ketkazadi va axloqqa salbiy ta‘sir qiladi. Masalan, qarzdor odam va‘daga xilof qilishga, yolg‘on gapirishga, garchi o‘zi xohlamasa-da, majbur bo‘lib qoladi. Shuning uchun payg‘ambar alayhissalom g‘am-qayg‘u, ojizlik, dangasalik, baxillik, qo‘rqoqlik, odamlardan mag‘lub bo‘lish kabi farovon hayot kechirishga zid narsalar qatorida qarz yukidan panoh so‘raganlar. Islom ta‘limotlarida odamlardagi moliyaviy taqchillikni bartaraf etish uchun zakot, ushr, fitr, sadaqasi va boshqa xayr-ehsonlarga targ‘ib qilingan [7:53–54].

Fiqhiy adabiyotlarda shar‘iy hukmlar chiqarishning umumiy maqsadi – kishilarning maslahatlarini (مصلحة) (manfaatlarini) yuzaga chiqarish, ularning zaruriyatlari, hojatlari va tahsinotlari to‘la-to‘kis bo‘lishiga erishish, har bir shar‘iy hukm kishilarning maslahatlari hisoblangan yuqoridagi uchta narsadan bittasini maqsad qilgan bo‘lishi keltirilgan. Demak, islom huquqidagi maslahatlar (manfaatlar) ham jamiyatning ijtimoiy himoyasini namoyon qiladi. Insonlarning hayotini yanada farovon qilishni nazarda tutadi.

Shu asosda, daromad va boylikni tarqatib berishga to‘g‘ri kelib qolsa, boylardan ko‘ra kambag‘allarga taqsim qilib berish ijtimoiy manfaatlar ko‘payishiga olib boradi. Chunki ma‘lum miqdordagi mablag‘ga boydan ko‘ra, kambag‘al ko‘proq muhtojdir [10:50].

Shuningdek, manfaatlar zararga yaqin yoki holi ekaniga ko‘ra (zararlardan holi) manfaatlar va zararga yaqin manfaatlarga ham bo‘linadi.

Manfaatlar yana farz bo‘lish holatiga qarab farzi kifoya va farzi aynga ham ajraladi. Farzi kifoya manfaatlarga kambag‘al bechoralarga yordam berish ya‘ni bir jamiyatda paydo bo‘lgan muammoni yechimi izlanib, shu yurti zarardan saqlab qolish kabilar kirib, bu barcha sohalarga tegishli hisoblanadi. Farzi ayn manfaatlarga moli nisobga yetganlar zakot berishi misol bo‘ladi.

Bundan tashqari, ommaviy va xos manfaatlarga ham bo‘linadi. Ular bir-biriga ro‘para kelganda, ko‘pchilikniki oldinga suriladi. Bu holat yuz bermasa, ommaviy foydani ko‘paytirish uchun xos nafni amalga oshiradi. Bu borada Imom Shotibiy aytadi: “Inson boshqaga manfaat keltirishi bilan o‘ziga manfaat keltirishga harakat qiladi. Shunda jamiyat uchun umumiy naf hosil bo‘ladi. Garchi har bir kishi o‘zi uchun harakat qilgan bo‘lsa ham, shu asnoda jamiyatga foyda keltirgan hisoblanadi” [7:27–28].

Yuqoridagi manfaat tamoyillariga asosan, islom huquqi ijtimoiy himoya uchun zakot, sadaqa kabi institutlar bilan jamiyatdagi boylik va ijtimoiy tabaqa o‘rtasidagi har xillikni kamaytirishni maqsad qilgan. Bunga oid Hashr surasi 7- oyatida faqatgina mol dunyo aylanib yurishi boylar o‘rtasidagi kuch bo‘lib qolishi, zararliligi ta’kidlanadi. Bunday holatda faqirlar kunlik rizqini va eng majburiy birlamchi ehtiyojlarini ta’minlay olmaydi. Boylarni boyligi juda ham katta miqdorda zararni keltirib chiqaradi. Islom huquqidagi ijtimoiy himoyaning maqsadi jamiyatda ijtimoiy adolatni o‘rnatish uchun ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi bo‘shliqni iloji boricha cheklash bilan kambag‘allarni boylar darajasiga olib chiqish hisoblanadi [4:39].

Bu dunyoda voqe bo‘ladigan hodisalarning ba’zilar shar’iy hukmga asos bo‘la oladi va shariatning hukmi sobit bo‘ladi. Ularni ulamolar “hukmga munosib ma’nolar” deb ataydilar. Ularni e’tiborga olishi jihatidan “masolihi mo‘tabara” (مصالح المعتبة), ya’ni e’tiborga olingan maslahatlar turi mavjud bo‘lib, o‘zida ijtimoiy himoya xususiyatini aks ettiradi. Bu turdagi maslahatlar ularni rioya qilish va e’tiborga olish haqida shariatda muayyan dalil sobit bo‘lgan ma’nolardir. Uning ichiga shariatning maqsadlari ham kiradi va ularga shariat e’tiborga olgan maslahatlar asos bo‘lgan [9:186].

Shuningdek, usulul fiqh kitoblarida shariatning maqsadlarini uchga: zaruriyat (ضروريات), hojiyot (حاجيات) (ehtiyotlar) va tahsiniyot (تحسينيات) (yaxshilash) qismlariga bo‘linishi keltirilgan [3:24]. Ushbu qismlar esa ijtimoiy himoya elementlaridan bo‘lib, bevosita insonning hayotiy zaruriy unsurlarini bildiradi. Ular esa usulul fiqh kitobida quyidagicha ta’riflanadi:

1. Zaruriyat – har bir insonning hayoti uchun lozim bo‘lgan narsa. Agar u bo‘lmasa, jamiyatdagi insonlarning yashashiga to‘siq bo‘ladi. Ushbu ma’noda kishilarga zarur bo‘lgan beshta narsani – din, jon, aql, or-nomus va molni saqlash kerak bo‘ladi. Bularni har bir inson uchun zarurdir. Islom mazkur besh narsaning har birini yaratish uchun ham, ularni saqlash uchun ham kafolat beradigan hukmlarni joriy etgan [11:110–111]. Zarurat – halok bo‘lish xavfi bo‘lganligi uchun o‘ta zarur narsalarga ehtiyoj sezishdir [3:23]. Demak, zaruriyat bosqichi inson hayotida eng kerakli birlamchi muhtojligini bildiradi. Ular bo‘lmasa, yashashni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu birinchi, eng yuqori darajasi hisoblanadi. Shuningdek, zaruriyat yuqori darajadagi ehtiyojlarni anglatib, jamiyatning huzur-halovati, tinchligi uchun jamiyatning tartibi uchun muhim asosiy huquq va qadriyatlarni bildiradi.

2. Hojiyot – insonning oson va bimalollikda yashashi, mashaqqatlarini ko‘tarishi uchun muhtoj bo‘layotgan narsa. Agar u bo‘lmasa, hayot tarziga unchalik zarar yetmaydi, zaruriyat bo‘lmaganidek jamiyatda tartibsizlik vujudga kelmaydi, biroq mashaqqatda qoladi. Mazkur ma’nodagi hojiyotlar insonlardan qiyinchilikni ko‘taradi, hayot takliflarini bajarishda yengillik tug‘diradi, yashash, muomala qilish yo‘llarini osonlashtiradi [11:110–111]. Hojat – mashaqqat va qiyinchilik xavfi bo‘lganligi uchun maqsad hosil bo‘lishligi, yengillatish va osonlashtirishni keltiradigan holat hisoblanadi. U zaruratdan pastroq turadi [7:31–32]. Shariatning ehtiyojga bog‘liq maqsadlari esa kishilarga osonlik tug‘dirish va ulardan qiyinchilik va mashaqqatni aritishga qaratilgan [12:362].

Demak, insonlarni yashash sharoitini normallashtirish uchun avvalo ularni zaruriyatlari va hojiyotlari birinchi ravishda qondirilishi kerak. Ularni yaxshilanishi insonga munosib turmush sharoiti yaratishni ta’minlaydi. Shu bois shariat zaruriyat va hojiyotlarni dastlabki o‘ringa qo‘yadi. Bu ikki daraja ijtimoiy himoyaga ehtiyojmandlikni o‘zida aks ettiradi. Mana shu birlamchi maqsadlar amalga oshirilgach, jamiyat hayotini yanada farovon bo‘lishiga sabab bo‘luvchi omil tahsinot qismiga o‘tiladi.

3. Tahsiniyot – muruvvat, odob, ishlarning eng to‘g‘ri yo‘l bilan bajarilishidir. Agar bularning birontasi bo‘lmasa, insonlarning yashash tartiblariga zaruriyat bo‘lmaganidagi kabi halal yetmaydi yoki hojiyot bo‘lmaganidagi kabi xarajga ham yo‘liqmaydi. Lekin hayotlari sog‘lom aql o‘lchoviga, fitratga munosib kelmaydi. Ushbu ma‘nodagi tahsinotga axloq, chiroyli odatlar, jamiyat a‘zolari hayotini ko‘rkam ravishda olib borishlar kiradi [11:110–111]. Shariatda tahsiniyotning (yaxshilash) maqsadi jamiyatda o‘zaro muruvvat ko‘rsatishdir. Agar bu narsa bo‘lmasa, hayot nizomi buzilib ketmasligi, odamlarga mashaqqat tug‘ilmasligi mumkin. Bu maqsadda, asosan, yaxshi odatlar va husni xulq ko‘zda tutiladi. Poklik haqidagi shar‘iy ko‘rsatmalar, yeb-ichish odoblari, oilaviy aloqalarni yaxshilash kabi ko‘plab ishlar haqidagi shar‘iy hukmlar kiradi [12:362]. Bu daraja yashash sharoitlarining farovonlik darajasini bildiradi. Oldingi ikki bosqichdagi ehtiyojlar qondiriladi va yanada yaxshiroq turmushni ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan shariatning insonlar hayotini farovon bo‘lishini ta‘minlovchi omillari hisoblangan zaruriyat, hojiyot va tahsinot kabi maqsadlarining amalga oshirilishi har bir davrda muhim ahamiyatga ega hisoblangan. Zero, bularning barchasi ilohiy ta‘limot buyruqlari asosiga qurilgan.

Islom huquqida “masolihi mo‘tabara” (المصالح المعتبرة – e‘tiborga olingan manfaatlar) qoidasi asosida insonlarning ehtiyojmandlik darajasi zaruriyat (ضروريات – zaruratlar), hojiyot (حاجيات – ehtiyojlar), tahsiniyot (تحسينات – farovonlik) tamoyillariga ko‘ra tasniflanib, shaxsning ijtimoiy himoyaga muhtojlik holati zaruriyat va hojiyot mezonlari bo‘yicha belgilangan.

Shuningdek, islom huquqining nazariy qismi bo‘lgan usulul fiqhda bo‘lgan “haqqulloh” (حق) (الله) va “haqqul abd” (حق العبد) (الله) masalalari ham ma‘lum ma‘noda ijtimoiy himoyani o‘zida aks ettiradi. Boisi, bu bilan bog‘liq munosabatlar va hukmlar butun bashariyatning manfaatini namoyon qiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, ijtimoiy himoyani o‘zida aks ettiradi.

“Haqqulloh” (حق الله) yoki “huququlloh” (حقوق الله) barcha jamiyatning huquqi, ya‘ni ommaviy huquqni ham o‘z ichiga oladi, katta ahamiyatga ega bo‘lgani uchun shunday nomlangan [13:44]. “Alloh taoloning haqqi” deganda butun bashariyatning umumiy manfaatiga bog‘liq haq tushuniladi. Bu haq biror shaxs uchun maxsus bo‘lmaydi. U juda ham katta ahamiyatga ega bo‘lgani va butun dunyoni qamrab olgani uchun Alloh taologa nisbat beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu haq jamiyatning haqqidir. O‘sha haqning hukmi shariatga ko‘pchilikning foydasini ko‘zlab kiritilgan, muayyan shaxsni foydasini ko‘zlab emas [9:338].

Shar‘iy hukmlarning barchasi mukallaflar²ning ishlariga bog‘liqdir. Agar u hukmdan jamiyatning manfaati maqsad qilingan bo‘lsa, u xolis Allohning haqqi bo‘lib, uni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Agar jamiyat va mukallaflarning manfaatlari birgalikda qasd qilingan bo‘lib, jamiyatning foydasi ekanligi aniq bo‘lsa, Allohning xolis haqqi bo‘lgan hukm bilan tengdir. Bunda shar‘iy hukmlarning mashru‘ qilinishidan maqsad butun jamiyat yoki bitta shaxs, ba‘zida har ikkalasining manfaatlari ko‘zda tutilgan bo‘ladi [11:127].

Shuningdek, usulul fiqhda “mahkumun fiyhi” (محكوم فيه) masalasi ya‘ni bandadan sodir bo‘lgan amallarning qismlari bo‘limida ham ijtimoiy himoyani o‘zida aks ettirgan jihatlari aniqlandi. Hanafiy mazhabiga ko‘ra mukallaf bandaning Alloh taoloning hukmiga bog‘liq amallari to‘rt qismga bo‘linadi:

1. Alloh taoloning O‘zining xolis haqqi;
2. Bandaning xolis haqqi;
3. Alloh taolo bilan bandaning haqqi jamlangan, Allohning haqqi g‘olib;
4. Mazkur ikki haq jamlangan, bandaning haqqi g‘olib.

Yuqorida keltirilgan amallarning tasnifi ichida Alloh taoloning haqqi masalasi ijtimoiy himoya, ya‘ni ko‘pchilikning manfaatini o‘zida ifoda etuvchi xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Shariatda ibodatning bir qancha turlari bo‘lib, ularni ba‘zilarining mohiyatida ijtimoiy himoya yotadi. Masalan, ichida ma‘unati (مؤنة) (ta‘minoti) bor ibodatni keltirish. “Ma‘unat” degani ba‘zi bir

² Balog‘atga yetgan, aqli raso, sog‘lom bo‘lgan zimmasiga shariat hukmlari yuklangan musulmon.

jonni yoki molni muhofaza qilish uchun yoki uning evazidan birovga beriladigan ta'minotdir. Buning misoli sadaqai fitr bo'lib, u o'zi ibodat bo'lishi bilan birga, ichida moliyaviy foyda ham bor. Chunki uni ado qilgan odam muhtojlarga sadaqa bergani uchun Yaratganga qurbat hosil qiladi. Uni bajarishda niyat shart hisoblanadi.

Ibodatlardan yana biri esa, ichida ibodat ma'nosi bor ma'unat bo'lib, ziroat yerlaridan, bog' va polizlardan chiqqan meva va sabzavotlardan olinadigan ushr ham kiradi. Bu to'lov yerga ega bo'lgani muqobiliga beriladigan ma'unat sanalib, u bilan yerning muhofazasi ta'minlanadi.

Shuningdek, mohiyatida moliyaviy manfaati ham bo'lgan yana bir ibodat "uqubat" (عقوبة) ma'nosi bor ma'unat. Ulardan biri xiroj – yer o'z egasining qo'lida qolishining muqobiliga (evaziga) va ularning dushmanlardan muhofaza qilib turilishi uchun olinadi. Hazrati Umar xirojni tashkil qilgan paytda, samarador yerlarni obod qilib turganlarning foydasini tutgan. Zakiyuddin Sha'bon o'z kitobida "bu turdan «uqubat» so'zini olib tashlash» va «u faqat ma'unatdan iborat» deyish kerak» degan. Ya'ni xirojda ushrdagi kabi ibodat ma'nosi yo'q. Shuningdek, undagi kafforatdagi kabi uqubat ma'nosi ham yo'q [9:339–340].

Imom Shotibiy shunday deydi: «Islom dinida barcha diniy prinsiplar hammasi Allohga o'zini topshirib itoat qilish, amallarida ham Allohga e'tiqod qilishga asoslanib jamlangan. Bu qarash nafaqat insonni, balki olamni, jamiyatni tartibga soladi. Inson Allohga ishonish, Uni rozi qilishni maqsad qilib jamiyatning bir bo'lagi sifatida muvozanatda yashaydi [4:38]. Bundan ko'rinib turibdiki, islom huquqida ijtimoiy himoyaning o'ziga xos xususiyati "xolislik" bo'lib, hech bir manfaatni ko'zlamaydi. Qilinadigan barcha yaxshi ishlar shu maqsadda amalga oshiriladi.

Demak, islom huquqida jamiyatning zaif qatlamiga tizimli ravishda ham moddiy ham ma'naviy yordam berilishi ilohiy harakterga ega. Ya'ni insonlarni o'zaro bir-biriga birodarlik asosida munosabatda bo'lishi Allohning bandalariga qilgan amrlari asosida amalga oshiriladi. Shu bois bu kabi ishlar xolislik bilan qilinadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra, islomda ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari: ilohiy ta'limot va amrlar asosiga qurilganligi, Yaratgan rizosi maqsad qilinganligi hamda insonlarni xulqini tarbiyalashga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Professor Yusuf Qarzoviy islom huquqidagi ijtimoiy himoyaning o'ziga xos jihatlari haqida: "Islomda ijtimoiy himoya muammosi ikki yo'nalishda o'z yechimini topgan. Biri diniy va axloqiy targ'ibot yo'nalishi bo'lsa, ikkinchisi uning majburiyat etib belgilangan" degan fikrni ilgari surgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, islom huquqida ijtimoiy himoya shariat maqsadlari va manfaatlari asosiga qurilgan. Insonning muhofazasi besh asosiy jihatdan ya'ni dini, aqli, joni, moli va sha'ni himoya qilinishini o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inson mana shu besh jihatdan himoyasining ta'minlanishi uning butun umri davomida mukammal tizim va qoidalar asosida ijtimoiy himoya qilinishini ko'rsatadi. Bu esa jamiyatda insonlar farovon hayot kechirishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shariatning maqsadi insonlarning hayotini, turmushini yanada yaxshilash, ular uchun manfaatli narsalarni ko'rsatib, zararli narsalardan qaytarishdir. Bundan shu ayon bo'ladiki, maqosidi shari'a ana shu mohiyatni anglatar ekan, demak shariat mezonlari batamom ijtimoiy himoya tizimini o'zida aks ettiradi va bu sohaning rivojiga o'zining beqiyos hissasini qo'shadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ҳакимова, Н. Қафғол Шошийнинг "Маҳосин" асарида ислом ҳуқуқи асосларига оид масалалар : Ислом фанлари фалсафаси доктори ... дисс. – Тошкент, 2022.
2. Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Исломда инсон ҳуқуқлари. – Ўил ва нашриёт кўрсатилмаган.

3. Aytaç, Aydın. İslam hukukunun 200'ü. – Ankara : İlahiyat, 2019.
4. Erol, A. Social protection in Islamic law. Theoretical perspective. – Berlin : Peterlang, 2018.
5. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи. Ж. 1. – Тошкент : Hilol-Nashr, 2018.
6. الإمام الشاطبي. الموافقات في أصول الشريعة. – بيروت : دار الكتب العربية، 2008.
7. Қодиров, Ҳ. Динимизда инсон манфаатлари. – Тошкент : Мовароуннаҳр, 2017.
8. البوطي، رمضان. ضوابط المصلحة في الشريعة الإسلامية. – دمشق : دار الفكر، 2005.
9. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Усулул фикҳ. – Тошкент : Hilol-Nashr, 2021.
10. Shayboniy, M. Iktisob fir rizqil mustatob. – Bayrut : Dār al-kutub al-ilmiyya, 1986.
11. Халлоф, А. Усулул фикҳ. 3–4 қисм. – Тошкент : Мовароуннаҳр, 1999.
12. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон. – Тошкент : Hilol-Nashr, 2021.
13. Жўзжоний, А. Ислом ҳуқуқшунослиги : Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Тошкент: ТИУ, 2002.

